

**Ўзбекистон Республикаси
Президентининг 2021-йил 13-
апрелдаги “Бюджет жараёнида
фуқароларнинг фаол иштирокини
таъминлаш бўйича қўшимча
чоратадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-
5072-сонли қарори ижроси
юзасидан маблағ ажратиш
тўғрисида.**

Sessiya raisi



MUHAMMADIYEV
KOMILJON
BO'RIYEVICH

**Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021-йил 13-апрелдаги
“Бюджет жараёнида фуқароларнинг фаол иштирокини таъминлаш
бўйича қўшимча чоратадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5072-сонли қарори**



**XALQ DEPUTATLARI QIZIRIQ TUMANI KENGASHINING
QARORI**

2024-yil 17-may

VI-76-55-8-113-K/24

Qiziriq tumani

2024-yil I-chorak yakunlariga ko'ra jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2022-yil 18-apreldagi "Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlar bajarilishi yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining hisobotlarini eshitib borish to'g'risida"gi KQ-334-VI-sonli qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i v.b. E.Xudoyqulovning xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasiga bergan hisobotini tinglab, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i v.b. E.Xudoyqulovning jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlar bajarilishi va 2024-yil I-chorakda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil I-chorakda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar, ya'ni tashabbusli budjet natijalari bo'yicha ma'lumotlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (E.Xudoyqulov) hamda tuman g'aznachilik bo'linmasi (G'.Saidov)lar shartnomalarga muvofiq yakuniy mablag'larni belgilangan tartibda g'olib takliflarni moliyalashtirish, natijalari bo'yicha ma'lumotlarni tuman hokimligi axborot xizmati (A.Bo'riyev) bilan birgalikda keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda "Ochiq budjet" axborot portal hamda tuman ijtimoiy tarmoqlarining rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.